

To'da oilaviy shifokorlik punktining ochilish marosimi o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 12-13-may kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan majlisda berilgan topshiriqlar bo'yicha yig'ilish bayonida belgilangan topshiriqlari va Farg'ona viloyati hokimining 2022 yil 22 avgust kungi 343-11-0-Q/22-sonli "Aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy-sanitariya yordami xizmati faoliyatini yanada yaxshilash va aholiga yaqinlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda 5 ta oilaviy shifokorlik punkti ish boshladi.

Bugun ushbu oilaviy shifokorlik punktining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Unda tuman hokimi o'rinnbosarlari sektor rahbarlari, sohaning mas'ul xodimlari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

To'da OShP "To'da" va "To'raobod" MFYlari hududida yashovchi 9000 nafardan ortiq aholiga xizmat ko'rsatadi. OShP binosi xomiylar tomonidan 200 mln so'mdan ortiq mablag' hisobiga ta'mirlandi.

Bu yerda nafaqat kelib-ketuvchilar, balki faoliyat olib boradigan 20 nafardan ziyod tibbiyot xodimlarining samarali ish yuritishlari uchun ham zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Mahalla ahliga ginekolog, oila shifokori va stomatolog kabi tor soha shifokorlari tomonidan malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishi bilan bir qatorda laboratoriya xizmati, ijtimoiy dorixona hamda statsionar davolanish uchun 8 o'rinnli kunduzgi shifoxona ham tashkil etildi.

2022-10-13 16:37:39